




TILAME

Tarjimayi hol.  
Sharof Rashidovning  
hayoti va ijodi.

Fan- O'zbek tili  
O'qituvchi- Kamaliddinova  
Nigora Sirajiddinovna





TILAME

REJA:

1

- Tarjimayi hol - rasmiy ish qog‘ozi

2

- Otamning hikoyasi

3

- Sharof Rashidovning tarjimai holi

4

- “Kashmir qo‘shig‘i “ dostoni



TIIAME

## Yodda tuting!

Yozuvchilar, mashhur shaxslarning tarjimayi hollari, odatda, III shaxs nomidan yoziladi. Bunday tarjimayi hol matnlarining qisqa, kengaytirilgan va ijodiy tarzda yozilgan shakllari bo‘ladi.

Tarjimayi hol rasmiy ish qog‘ozi hisoblanadi. U I shaxsning o‘z dastxati bilan ko‘rsatilgan namunadagidek yoziladi. Har bir fuqaro o‘z tarjimayi holini bilishi va davlat tilida to‘g‘ri yoza olishi kerak.



TIIAME

**1-mashq.** Tarjimayi holning tuzilishiga e'tibor bering va shu asosda o'z tarjimayi holingizni yozing.

Men - ... (kim?), ... (qachon?) ... (qayerda?)  
tug'ildim.


Otam - ... (kim?) ... (qayerda?) ... (kim bo'lib?)  
ishlaydi.

Onam - ... (kim?) ... (qayerda?) ... (kim bo'lib?)  
ishlaydi.

Men ... (qachon?) ... (qaysi?) mактабга о'qishga  
bordim.

Maktabni ... (qachon?) ... (qanday?) bitirdim.  
... (qachon?) ... (qaysi?) oliy ta'lim o'quv  
muassasasiga o'qishga kirdim.

Hozir ... (qaysi?) fakultetda ... (nechanchi?)  
bosqichda o'qiyapman.





TIIAME

# Tarjimai hol

Hotamjon Ketmonov 1969 – yil Andijon viloyati Baliqchi tumanida tug'ilgan. 1993 – yil Andijon davlat pedagogika tillar institutini rus tili va adabiyoti o'qituvchisi mutaxassisligi bilan tamomlagan. Olilali 3 nafar farzandi bor.

Faoliyatini 1993 – yil Farg'onaning Toshloq tumanidagi mактабда о'qituvchilikdan boshlagan. 1995 – 2000 – yillar Farg'ona viloyati Xalq ta'lim boshqarmasi tizimida mehnat qilgan.

2004 – 2013 – yillarda Andijon viloyati hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rribosarilavozinida ishlagan.

2013 – yildan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi, 2014 – yilgi parlament saylovida Oliy Majlis qonunchilik palatasiga deputat etib saylangan. 2015 – yil yanvardan qonunchilik palatasi spikeri o'rribosari.

2015 – yilgi Prezident saylovida O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovga raqib bo'lgan. Saylovda 2,92 % ovozni qo'lga kiritib, poygada Islom Karimov va Akmal Saidovdan so'ng uchunchi bo'lgan.



Tarjimai hol hozirgi kunda ish qidirishda eng muhim hujjat hisoblanadi.O'zbek tilida bunday hujjat "tarjimai hol" va "shaxsiy ma'lumotnoma" deb ham atalishi mumkin, lekin Tarjimai holning shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir.



- a. Ishlagan sana, lavozim, tashkilot nomi, manzili, qisqacha vazifalari va yutuqlari
- b. Eng oxirgi ish joyidan boshlab yoziladi
- Misol: 25.01.2008 – 10.02.2011 Loyiha mutaxassisi, "Yoshlarda ish ko'nikmalarini rivojlantirish loyihasi". NNT "Faol", Shaxrisabz ko'chasi 1-uy, Toshkent. Tel: 267-00-00

Alimov Usmon Ibrohimovich

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i**



Alimov Usmon Ibrohimovich 1983-yil 6-aprelda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli, Termiz davlat universitetini tugatgan. Milliy istiqlol g'oyasi huquq va ma'nnaviyat asoslari, Iqtisodiyot (tarmoqlar sohasi bo'yicha) mutaxassisliklariga ega.

Mehnat faoliyatini 2007-2013-yillardan Denov tumani hokimligi iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha majmuasi yetakchi mutaxassis.

2013-2015-yillarda Surxondaryo viloyati hokimligi qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha majmuasi referenti.

2015-2016-yillarda Surxondaryo viloyati hokimligi axborot-tahlil yetakchi mutaxassis.

2016-2017-yillarda Surxondaryo viloyati hokimligi hududlarni kompleks rivojlantirish yig'ma boshqarmasi qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i.

2017-2018-yilda Surxondaryo viloyati hokimligi Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassis.

2017-2018-yilda Surxondaryo viloyati hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinnbosari kotibiyati mudiri.

2018-2019-yillarda Uzun tumani hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosari.

2019-yildan O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlab kelmoqda.

Usmon Alimov oilali, ikki nafar o'g'il, ikki nafar qiz farzandlari bor.

- 
- Loyiha chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo'yicha prezentatsiyalar berish.
  - Qo'shimcha ma'lumotlar:
    - a. Xorijiy tillar
    - b. Kompyuter darturlari to'g'risida bilimlar
    - c. Yutuqlar (sport bo'yicha, stipendiyalar va boshqa muhim yutuqlar)
    - d. Qo'shimcha treninglar va kurslar
    - e. Tajriba orttitirsh (stajorlik) paytlari
    - f. Qiziqishlar
    - g. Ilmiy maqolalar
    - h. Konferensiyalardagi ma'ruzalar
-



**1-topshiriq.** Matnni o‘qing.  
Matndagi qo‘sishimcha ma’lumotlarni  
tushirib qoldirib, ixcham shaklga  
keltiring.

## Otamning hikoyasi

1943-yilning qish fasli. Otamni raykomga chaqirishib, Farhod GES qurilishi boshlanganligi vaunga yuzga yaqin ishchilarni olib borishni topshirishadi. Odamlarni to‘plagan otam Bekobod qurilishiga boradilar. Ular bilan birga urushda yarador bo‘lib kelgan Sharof Rashidov ham bor edi.

Ular bir yerto‘lada yotishgan. O‘sha kunlarni otam shunday xotirlaydi:




TIIAME

Sharofjon chap qo‘lining yelkasiga yaqin joyidan yaralanganligi uchun etagini men kiygizib qo‘yardim. Qurilish 45 kun davom etdi. Ish qurolimiz ketmon, belkurak, zambil edi. Kun juda sovuq, ocharchilik, yegulik juda kam. 15-20 kunlardan keyin men yegulik olib kelgani Jizzaxga bordim. Shunda Sharofjon: «Zokir aka, bizning hovliga ham o‘ting, uydagilardan xabar oling, u-bu narsa berib yuborishsa, olib keling», - dedi. Jizzaxga kelib, Rashid boboning uyiga bordim.

U paxtachilik zvenosining boshlig‘i bo‘lib ishlar edi. Yegulik hech narsa yo‘q, nihoyatda ocharchilik, zo‘rg‘a bir hovuch olma qoqi, bir hovuch o‘rik qoqi berishdi. So‘ng men tog‘alarimnikiga bordim.





Ular bozorda qassoblik qilishar, iqtisodiy jihatdan bizdan tuzuk edilar. Ulardan arpa non, makkajo‘xori, meva qoqi, biroz go‘sht olib, to‘lib-toshib Bekobodga keldim. Olib kelganlarimdan bir qismini Sharofjonga tortiq qilib, «Otang berib yubordi» dedim. U juda xursand bo‘lib ketdi.

Bir kuni qurilishga O‘zbekiston rahbari Usmon Yusupov keldi. U juda sersavlat, yirik odam ekan. Yig‘ilishda Farhod GESning ahamiyati, unda qancha elektr toki ishlab chiqarilishi va jamiyatimiz iqtisodiga foydasi to‘g‘risida gapirdi. Bu ulkan qurilishga hissa qo‘sheyotganlarga minnatdorchilik bildirdi. Shundan so‘ng birinchi bo‘lib Sharofjon so‘zga chiqdi.

U bir she'rni shunday o'qidiki, hamma odam yig'ladi. Keyin bo'layotgan qurilish haqida gapirib, barchani go'yo sehrlab qo'ygandek bo'ldi.

Yig'ilish tugagach, Usmon Yusupov Sharof Rashidovni chaqirib so'radi:

- Isming nima?
- Ismim Sharofiddin.

Shunda Usmon Yusupov o'ylab turib:

- Isming bugundan boshlab Sharof. Sharofatli bo'l. Qurilish tugagach, Toshkentga borib menga uchrash, - dedi.


Ana shu uchrashuvdan so'ng, Sharof Rashidov bosqichma-bosqich yuqorilab bordi va O'zbekiston rahbari darajasigacha yetdi.



Lug‘at	
<b>yarador</b> - раненый	<b>zo‘rg‘a</b> - еле-еле
<b>xotirlamоq</b> - вспоминать	<b>bir hovuch</b> - пригоршня
<b>paxtachilik</b> - хлопководство	<b>qassoblik qilmoq</b> - работать
<b>meva qoqi</b> - сухофрукты	мясником
<b>ocharchilik</b> - голод	

**2-topshiriq.** Berilgan ta’riflar asosida Sharof Rashidovni tavsiflovchi bog‘lanishli matn tuzing.

Yetuk inson, chuqur bilimli, o‘tkir zehnli, fidoyi rahbar, kamtar inson, davlat arbobi, chinakam tug‘ma iste’dodga ega ijodkor.





## **SHAROF RASHIDOV**

**1917 - 1983**

O‘zbek xalqining sevimli farzandi, atoqli davlat arbobi, taniqli adib Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabrda Jizzax shahrida tug‘ilgan. Jizzax pedagogika texnikumini bitirib, maktabda o‘qituvchilik qila boshlaydi. Samarqand viloyati gazetasida kotib, muharrir bo‘lib ishlaydi.

U Samarqand Davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga kiradi. 1941-yilda o‘qishni tugatgan Sharof Rashidov Ikkinchı jahon urushiga safarbar qilinadi, biroq 1942-yilda og‘ir yarador bo‘lib qaytadi. Samarqand viloyat gazetasida muharrir, Samarqand viloyati qo‘mitasining kotibi vazifalarida ishlaydi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Sobiq O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi va to umrining oxirigacha O‘zbekiston Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimlarida fidokorona faoliyat ko‘rsatdi.

Sharof Rashidovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2017-yilda tavallud kunining 100 yilligi butun mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlandi. U tug‘ilgan tuman, maktabga uning nomi berildi, unga atab katta haykal o‘rnatildi va go‘zal bog‘ bunyod etildi. Xalqimiz o‘zining asl farzandini hech qachon unutmaydi.





## Lug‘at

**safarbar qilish** - мобилизация

**muharrir** - редактор

**uyushma** - объединение, союз

**kotib** - секретарь

**bog‘** - сад, парк

**fidokorona** – самоотверженно

**abadiylashtirmoq** - увековечить



TIIAME

**3-topshiriq.** She’rni rollarga bo‘lib o‘qing.

*Kashmir qo‘srig‘i  
(dostondan parchalar)*

Dugonalar, bormisiz, omonmisiz,  
Jam bo‘lishib, ochilib gulzormisiz.  
Hech qanday kuch bizni xazon etolmas,  
Bo‘ron, Xorud murodiga yetolmas.  
Yov chekinar, ozod bo‘lur bog‘imiz,  
Ozod bo‘lur, obod bo‘lur bog‘imiz.





Qora kuchlar gulistonidan quvilsin,  
Gullar bargi shabnam bilan yuvilsin!  
Dushman o'lsin, bog'imiz obod bo'lsin,  
Birlashaylik do'stlarimiz shod bo'lsin.


Gullarjon, bog'imizdan  
Ofatlarni quvaylik.  
Nozik yaprog'imizdan  
G'uborlarni yuvaylik.

Bo'ron - kuchli, Xorud ham  
Bo'rondan qolishmaydi.  
Ular bilan bu olam –  
Qorong'i, yorishmaydi.

Ammo birlashsak, do'stlar,  
Har qanday yov qochadi.  
Axir, kichik yulduzlar  
Birlashib nur sochadi.



TIIAME





**Navro'zgul:**  
Bizlarni ojiz demang,  
Dushmanlardan kuchlimiz.  
Xorud nima? Qilsak jang,  
Bo'rondan ham kuchlimiz.

**Atirgul:**  
Agar xush bo'y taratsam,  
O'limtiklar qochadi.  
Qo'shig'imni yangratsam,  
Do'stlar quchoq ochadi!

**Lola:**  
Qip-qizil rangim bilan  
Zulmatni qochiraman.  
Mardligim, jangim bilan  
Senlarni shoshiraman.

**Oq atirgul:**  
Bizlarni ojiz dema,  
Kurashda solishamiz.  
Uyatchan bir qiz dema,  
Yigitdek olishamiz!




TIIAME

Lug‘at	
<b>shabnam</b> - роса	<b>nur sochish</b> - сияние
<b>ofat</b> - напасть, беда	<b>ojiz</b> - слабый, бессильный
<b>g‘ubor</b> - пыл, перен. тоска, грусть	<b>zulmat</b> - мрак, тьма
<b>qorong‘i</b> - темно	<b>o‘limtik</b> - падаль

## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Kimlarni «O‘zbekistonning asl farzandlari» deb atash mumkin?
2. Sharof Rashidov amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida so‘zlab bering.
3. Matnning gapdan farqi, matn qismlari haqida ma’lumot bering.
4. Tarjimayi hol kimning nomidan va qanday yoziladi?
5. Daftaringizga BBB jadvalini chizing. Mavzu bo‘yicha nimalarni bilib olganingiz va nimalarni bilmoqchililingizni yozing.





Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman



**Uyga vazifa.** Sharof Rashidov haqida so‘zlab bering, she’rlarini yod oling.





E‘tiboringiz uchun  
rahmat!